
SIROJIDDIN RAUF IJODIDA VATAN MANZARALARI

Umida Abduraxmanova,

Alfraganus universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sirojiddin Rauf she'riyatida Vatan konseptining badiiy-falsafiy talqini tahlil etiladi. Shoir lirikasida Vatan timsolining milliy o'zlik, tarixiy xotira, ma'naviy qadriyatlar, e'tiqod va fuqarolik mas'uliyati bilan uzviy bog'liq holda ifodalanishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda "Fuqaro", "Vatanni anglash", "Amir Temur" hamda Qashqadaryo va Ko'k Gumbazga bag'ishlangan she'rlar misolida Vatan obrazining poetik xususiyatlari, tabiat tasvirlari, tarixiy shaxslar va madaniy obidalar vositasida yaratilgan badiiy umumlashmalar tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning falsafiy mushohada, obrazli tafakkur va lirik-psixologik tasvir vositalari orqali Vatanga muhabbat, ozodlik, tinchlik va milliy g'urur g'oyalarini yuksak badiiy saviyada ifodalash mahorati ochib beriladi. Xulosa sifatida Sirojiddin Rauf she'riyati zamonaviy o'zbek lirikasida Vatan konseptini falsafiy-estetik mazmunda boyitgan, milliy tafakkur va vatanparvarlik tuyg'ularini yuksak badiiy darajada aks ettirgan muhim adabiy hodisa ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Sirojiddin Rauf, Vatan konsepti, zamonaviy o'zbek she'riyati, falsafiy lirika, Vatan obrazi, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, Amir Temur, Qashqadaryo, badiiy talqin.

Sirojiddin Rauf ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy asosda tizimli ravishda tadqiq etib kelinayotgan shoirlar sirasiga kiradi. Tadqiqotlarda "...shoir lirikasi falsafiy mushohada, e'tiqod va inson ruhiy olamini badiiy talqin etish jihatidan tahlil qilinadi" [1;17]. Jumladan, professor No'monjon Rahimjonov "Zamonaviy o'zbek lirikasi falsafiy tamoyillari" nomli monografiyasida bugungi o'zbek poeziyasi falsafiylik darajasiga ko'tarilganini, Sirojiddin Rauf ijodida esa bu tamoyil yanada aniq namoyon bo'layotganini ta'kidlab, quyidagi qaydlarni keltiradi: "Sirojiddin Rauf ijodi – bu nafaqat badiiy, balki falsafiy va Vatan ruhi bilan bog'liq ijodiy hodisa bo'lib, o'quvchi qalbiga chuqur hissiy ta'sir ko'rsatadi [1;34]. Adabiyotshunos Abduhamid

Pardayev “Daxlsiz qalb saltanati” nomli maqolasida shoir lirikasi falsafiy tahlil, ichki musiqiylik va Vatan timsolini qalb tasvirlari orqali ifodalashini ta’kidlaydi [2;4]. Anglashiladiki, Sirojiddin Rauf she’riyatiga xos yetakchi xususiyatlaridan biri – har bir mavzuga yuksak falsafiy mushohada hamda teran psixologik tasvirlar bilan yondashuvida namoyon bo’ladi.

Vatan mavzusi, uning betakror tabiati, tarixi va bugungi qiyofasi, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi mavzular Sirojiddin Rauf poeziyasi mundarijasini tashkil etadi. Zero, shoir she’riyatida Vatan mavzusi – xalq, millat, diniy e’tiqod, ma’naviy qadriyat kabi tushunchalar uyg‘unligida tarannum etiladi. Mana shu ulug‘ tuyg‘u hamma narsadan buyuk degan g‘oya ustuvorligi uning sarlari mag‘ziga singdirilgan. Bir she’rida shunday yozadi:

*Baqolik kasb etmas bu tan abadiy,
Bir unsur bo‘lolmas zotan abadiy.
Yaratgan Egamdan o‘tinchim budir:
Ozod va hur bo‘lsin Vatan abadiy! [4].*

O‘z so‘zi va o‘z uslubiga ega bo‘lgan shoir Vatan manzarasini shu hududning bir fuqarosi sifatida yangicha shakllarda yuksak qalb tuyg‘usi ila talqin etadi. Shoirning lirik falsafasi va obrazli tafakkuri Vatanni qalb, ruh, tabiat va e’tiqod bilan uyg‘unlashtiradi:

*Bahorga to‘ymasman, yoz ila ayoz,
Nainki to‘kin kuz, bari diloru.
Istagu tilaklar bir quloq bayoz,
Men bir fuqaro...[4;49].*

Ushbu nomli “Fuqaro” she’riy parchada shoir fasllar almashinuvi orqali inson hayotining rang-barangligi va to‘kisligini ifodalaydi. Bahor, yoz, ayoz va to‘kin kuz obrazlari Vatanning tabiiy go‘zalligi bilan uyg‘unlashib, lirik qahramonning hayotga, yurtga bo‘lgan cheksiz muhabbatini anglatadi. “Men bir fuqaro” misrasi esa shoirning jamiyat oldidagi mas‘uliyatini, Vatanni sevish fuqarolik burchi ekanini falsafiy mazmunda ta’kidlaydi. “Yurakning daxlsiz saltanati” g‘oyasi aynan shu yondashuvni

mukammal aks ettiradi. Zero, Vatan shunchaki maskan emas, balki insonning muqaddas muqim makoni sifatida tasvirlanadi.

Sirojiddin Rauf sheʼrlarida tabiat manzaralari, fasllar oʻzgarishi, yomgʻir, toza havo, yulduzlar kabi obrazlar Vatanning lirik ifodasi sifatida qoʻllaniladi. A. Pardaev taʼkidlaganidek, "...shoir tabiatning rang-barangligi va fasllar oʻzgarishini Vatan ruhiy goʻzalligi bilan bogʻlab beradi. Shu orqali oʻquvchi Vatanni nafaqat tashqi koʻrinishi bilan, balki qalb va ruh bilan his qiladi" [2;4]. Anglashiladiki, Sirojiddin Rauf sheʼriyatida Vatan nafaqat goʻzal manzarasi, iqlimi bilan, balki mehnatkash insonlari, maʼnaviy qadriyatlarining badiiy mujassami sifatida tasvirlanadi. Bu kabi tushunchalar shoirning "Vatanni anglash" sheʼrida yanada yorqinroq tasvirlanadi:

Balki bilmasmidik nimadir vatan,

Zamin yoʻliqmasa dardga dafʼatan? [4;43].

Mazkur parchada Sirojiddin Rauf Vatanni anglash inson boshiga sinov tushgan pallada roʻyobga chiqishini taʼkidlaydi. Shoir "dard"ni jamiyatni hushyor torttiruvchi kuch sifatida talqin etib, beparvolik va xudbinlikni fosh etadi. Vatanni sevish faqat tinchlikda emas, balki sinovda birlashish orqali namoyon boʻlishi gʻoyasi ilgari suriladi.

Sirojiddin Raufning "Amir Temur" sheʼri orqali Qashqadaryo yurtini elga podsho bergan, tarixning burilish nuqtalarida najotkor yetishtirgan muqaddas makon sifatida ulugʻlaydi. Shoir dastlab zulm va adovat ostida ezilgan tuproq manzarasini chizadi. "Yovuzlar toptagan bu tuproq" misralari yurtning ogʻir sinovlarga duch kelganini bildirsa, "Xaloskor tugʻildi Qirʻon burjida" singari olovli satrlar qaʼtida Amir Temurning dunyoga kelishini buyuk bir tarixiy hadisa sifatida ifoda etadi.

Shoir Vatan va uning shonli tarixi haqida mulohaza qilishga undovchi "Amir Temur" nomli sheʼrida zulm va zoʻrlikning adolat va erkinlik qarshisida mudom magʻlub ekanligiga ishoralar keltiradi:

Bu ne koʻrgulikdir odamni odam

Xaqorat aylasa, etsa zanjirband?

Zulmat qoʻrʻgʻoniga oʻt qoʻyib shahdam,

Ezgulik yalovin koʻtar-di baland! [4;83].

Shoir "...Zulmat qo'rg'oniga o't qo'yib" misrasi orqali Amir Temurning adovat va zulmga qarshi baland ko'targan qilichini ezgulik yalovi sifatida tasvirlaydi. Shu tariqa, yurt va xalqni himoya qiluvchi, tinchlik va birlik ramzi sifatida Temur obrazi yuksaltiriladi. Shu jihatdan mazkur asar yurtni, tarixiy shaxslarni va ularning ezgulik uchun qilgan xizmatlarini lirik-falsafiy nuqtayi nazardan aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. She'rning yakuniy qismida Amir Temur tinchlik, birlik va adolat g'oyalarini ilgari suruvchi buyuk davlat arbobi sifatida umumlashtiriladi. Shoir uni faqat jangovar sarkarda emas, balki "... tinchlik va ozodlik deb ot surgan" buyuk siymo darajasiga ko'taradi. Sirojiddin Rauf Qashqadaryo farzandi. Shoir ayni o'zi tug'ilib, voyaga yetgan Qashqadaryo zamini yurtga podshoh bergan muqaddas ona zamin sifatida badiiy tasviriy vositalarda madh etadi. Asar mohiyatiga "Vatan obodligi, xalqning ozodligi" evaziga voqe bo'lishini misralar qatiga singdirib yuboradi.

Ma'lumki, tilimizda Vatan so'zining bir nechta ma'nodoshlari uchraydi. Masalan, ona vatan, ona yurt, ona diyor, ona o'lkam, ona yer va hokazo. Sirojiddin Rauf Qashqadaryo yurtini jannatmakon, to'rt fasl bilan bezalgan go'zal voha sifatida tasvirlaydi. Zero, shoir Vatan manzaralarini tasvirlar ekan, uning har qarich yerini dunyoning eng ko'rkam joylaridanda ziyoda bilishini ko'rishimiz mumkin. Shoirning "Qashqadaryo jannatmakon" degan iborasida yurtning tabiiy manzaralari, dala-dashtlar, mevali bog'lar va daryolar tasvirlangan bo'lib, har bir fasl o'zining rang-barangligi va jozibasi bilan lirik ifodalanadi. Xususan, u tarixiy va madaniy obida hisoblangan Ko'k Gumbaz madrasasiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu madrasaga bag'ishlangan she'rlarida Sirojiddin Rauf uning ruhiy va ma'naviy ahamiyatini, xalq tarixidagi o'rnini ta'kidlaydi. Madrasaning go'zalligi, osmon bilan uyg'unligi va tabiiy muhit bilan uyg'unligi shoirdagi milliy g'urur, e'tiqod va vatanga muhabbat tuyg'ularini kuchaytiradi. Sirojiddin Rauf ijodida Qashqadaryo nafaqat ona makon, balki ma'naviy, madaniy va tarixiy mason sifatida ham talqin qilinadi.

Dolg'ali kechmishni ravo ko'ribdi,

Seni suronlarga tashlagan qismat.

Mangulik qah-qaha urib turibdi,

Boshinda yillarni qilichdek sermab [4,101].

Ayni to'rtlikda Rauf Ko'k Gumbaz tarixini chuqur lirik ohangda tasvirlaydi.

“Mangulik qah-qaha” va “yillarni qilichdek sermab” kabi ifodalar obidaga qarshi vaqtning sinovlarini, unga nisbatan inson hayratini ifodalaydi.:

*Mag‘rursan, yelkangda asrlar changi,
Poyingda tin olar sahroyi yellar.
O‘tdi ne zamonlar o‘chgancho rangi,
Qoraysan: yana ne davronlar kelar [4,101].*

Mazkur parchada obida tarixiy davomiylik timsoli sifatida keltiriladi. Shoir Ko‘k Gumbazning vaqt va tabiat bilan uyg‘unligini, qadimiylik va barqarorlikni lirik-falsafiy tarzda ochib beradi. “Asrlar changi” va “sahroyi yellar” tabiat va tarixning uyg‘unligini ta‘kidlaydi:

*Ko‘rding, vaqt ummonin to‘lqini bilan
Necha dov-daraxtu xaslar o‘tdilar.
Xasadda to‘lg‘onib, seni zamindan
Supurmoq istagan kaslar o‘tdilar [4;101].*

Bu parchada ijodkor tarixiy sadoqat va sinovlarni tasvirlaydi. “Vaqt ummoni” va “xasadda to‘lg‘onib” iboralari Ko‘k Gumbazning vaqt sinovlardan o‘tganligini, uning tarixiy chidamliligini ko‘rsatadi. Shoir bunday lirik obrazlar orqali tarixiy obidaga bo‘lgan ehtiromni ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sirojiddin Rauf ijodida Vatan nafaqat ona zamin, balki qalb va ruhiy olam bilan uyg‘unlashgan ma’naviy hudud sifatida tasvirlanadi. Shoir she’rlarida to‘rt fasli mukammal voqea tabiati, “olov purkovchi sahrolari”, “zumurrad rangli osmoni”-yu, tarixiy allomalari Vatan manzaralarini mujassam etadi. Uning asarlari mohiyatida vatanga sadoqat, ajdodlarga hurmat, yurtdoshlarga mehr-oqibat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga esa e’tiqodli bo‘lish g‘o‘yalari singdirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahimjonov N. Zamonaviy o‘zbek lirikasi falsafiy tamoyillari. –Toshkent: Fan va Texnologiya, 2015.
2. Pardayev A. Dahlsiz qalb saltanati. – Toshkent: Mohiyat gazetasi, 2011.
3. Erkin A‘zam. Sirojiddin Rauf she’riyatining lirik jihatlar. –Toshkent: Adabiyotshunoslik, 2013.

4. Rauf Sirojiddin. Men bir fuqaro!. –Toshkent: Akademnashr, 2024.
5. Botirova, S. (2020). Forming patriotic spirit within pedagogical education cluster. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 5(10), 200-205.
6. Ботирова, Ш. И. (2021). МОДЕРН ВА МОДЕРНИЗМ ҲАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 509-520.
7. Akbarova, M., & Botirova, S. (2021). ZULFIYA SHE'RIYATIDA BADIY OLAM TALQINI. *Scientific progress*, 1(5), 129-134.
8. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE HARMONY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 80-85.
9. AzizaSherboboevna, K. (2021). Linguistic Characteristics Of Advertising Discourse: Creolized And Non-Creolized Advertising Texts. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(3), 2944-2951.
10. Sherboboyevna, X. A. (2025). TIL, REKLAMA VA GENDER: IJTIMOIIY-MADANIY IDENTIFIKATSIYANING AKS ETTIRILISHI. *Journal of Modern Educational Achievements*, 5(5), 133-142.
11. Sherboboyevna, X. A. (2025). REKLAMA DISKURSINI QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL QILISHNING KONSEPTUAL MODELI. *KONFERENSIYA*, 1(2), 1015-1021.
12. Холбобоева, А. Ш. (2024). РЕКЛАМА ДИСКУРСИНИНГ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 46), 632-634.
13. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.
14. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.